

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**XAKIMOVA MAFTUNA TALXATBEK QIZI**

**GEOLOGIYA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH  
(Davlat geologik monitoring xizmati misolida)**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Xakimova Maftuna Talxatbek qizi**

Geologiya sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish  
(Davlat geologik monitoring xizmati misolida) ..... 3

**Хакимова Мафтуна Талхатбек кизи**

Совершенствование использования цифровых технологий в  
геологической сфере (на примере Государственной службы  
геологического мониторинга) ..... 25

**Xakimova Maftuna Talxatbek qizi**

Improving the Use of Digital Technologies in the Field of Geology  
(A case study of the State geological monitoring service) ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of publication ..... 56

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**XAKIMOVA MAFTUNA TALXATBEK QIZI**

**GEOLOGIYA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH  
(Davlat geologik monitoring xizmati misolida)**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2335 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi rasmiy web-saytida (<https://rgsbm.uz>) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

**Rasmiy opponentlar:**

**Kenjabayev Aman Turg'unovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**To'rayev Shavkat Shuxratovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Xalqaro Nordik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi huzuridagi DSc.19/04.07.2023.1.88.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_:\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy Tel.: (+998971) 239-03-05; faks: (+99871) 239-03-03, e-mail: [info@rgsbm.uz](mailto:info@rgsbm.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy Tel.: (+998971) 239-03-05; faks: (+99871) 239-03-03, e-mail: [info@rgsbm.uz](mailto:info@rgsbm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.X. Suyunov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**T.U. Qodirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**A.T. Kenjabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Jahon iqtisodiyotida geologiya sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish yer osti boyliklarini izlash, ulardan foydalanish samaradorligi va investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim strategik omil hisoblanadi. Geoaxborot tizimlari (GIS), masofadan zondlash, sun'iy intellekt va 3D-modellashtirish texnologiyalari orqali geoma'lumotlarning real vaqt rejimida yig'ilishi va tahlil qilinishi natijasida resurslarni aniqlash aniqligini oshirish, qidiruv xarajatlarini kamaytirishga erishilmoqda. Bularning barchasi geologik xavflarni pasaytirish, ishlab chiqarish qarorlarini tezkor va ilmiy asosda qabul qilish, shuningdek, barqaror mineral resurslar boshqaruvini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Dunyo bo'ylab geologiya sohasida geoaxborot texnologiyalaridan foydalanishning o'sish tendensiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, "2020-yilda geologik kompaniyalarning taxminan 25-30 foizi landshaft tahlili va geofazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish uchun geoaxborot texnologiyalaridan foydalangan bo'lsa, 2025-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 50-60% gacha o'sishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Bundan ko'rinadiki, geologiya sohasining raqamli transformatsiyasi global resurs boshqaruvi samaradorligini oshiruvchi asosiy iqtisodiy drayverga aylanmoqda.

Jahonda geologiya sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar asosan geoma'lumotlarni chuqur qayta ishlash imkonini beruvchi sun'iy intellekt va mashinali o'qitish algoritmlarini joriy etish, 3D va 4D geologik modellashtirish orqali yer osti strukturalarini aniqlik bilan prognozlash, bulutli platformalarda geoma'lumotlar almashinuvi va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, masofadan zondlash orqali yirik maydonlarda geologik monitoringni avtomatlashtirish kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, IoT sensorlari asosida geodinamik jarayonlarni real vaqtda kuzatish, data-mining texnologiyalari asosida mineral resurslar qidiruv strategiyalarini optimallashtirish, hamda raqamli ekotizimga yo'naltirilgan geologik loyihalarni iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar kengaymoqda. Ushbu tendensiyalar geologik tadqiqotlarni yuqori aniqlikda, kam xarajat bilan va ekologik barqaror tamoyillar asosida olib borish imkoniyatlarini kuchaytirmoqda.

O'zbekistonda 2020-2023-yillar oralig'ida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida raqamli xaritalash va masofaviy zondlash (RS) texnologiyalari asosida 30 dan ortiq geologik hududlar bo'yicha geoaxborot platformalari ishlab chiqilgan, geoaxborot texnologiyalari asosida foydali qazilmalarni aniqlash, seysmik zonalarni tahlil qilish, yer tuzilmasini modellashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirilmoqda, umumiy qiymati 1 milliard 865 million dollarlik 15 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan, geologiya fanlari universiteti virtual o'quv laboratoriyasining birinchi prototipi yaratilgan<sup>2</sup>. Keyingi yillarda geologiya-qidiruv ishlari hajmi avvalgi davrga nisbatan 3 barobar oshgan bo'lib, sohaga 3D seysmik qidiruv, aerogeofizika,

<sup>1</sup>Manba: <https://www.geospatialworld.net/>, <https://www.mckinsey.com/>.

<sup>2</sup>Manba: <https://www.uzembassy.by/news/31457>.

kosmogeologiya, raqamli geologiya kabi ilg'or usullarni joriy etish avj olib bormoqda. Shu bilan birga, 2025-2030 yillarda O'zbekistonda geoaxborot texnologiyalari asosida geologik tahdidlarni prognoz qilish va nazorat qilishning to'liq raqamli tizimini yaratish rejalashtirilgan, 2025-yildan boshlab respublika miqyosida geologik tahdidlarni raqamli asosda boshqarish tizimining shakllanishi kutilmoqda. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot muhitida raqamli texnologiyalarni boshqarishni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2022-yil 28-dekabrdagi PQ-459-son "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 21-apreldagi PQ-5083-son "Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda yerni masofadan o'lchash, zondlash ma'lumotlaridan keng foydalanish, tabiiy va texnogen xavflarni baholashning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli, uning xususiyatlari, qo'llash sohalari va takomillashtirishni tadqiq qilish borasida xorijiy mamlakat olimlari Lebel D., Nastev M., Hartmann G., Pradhan A.M., Riitta Molarius, David Ovadia, S.Mandal, Froude M.J., Petley D.N., Aleksandra E. Huff va boshqalar ilmiy ishlar olib borgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup>Lebel D. Geological Survey of Canada 8.0: mapping the journey towards predictive geoscience //Geological Society, London, Special Publications. – 2020. – T. 499. – №. 1. – p. 49-68.; Nastev M. et al. Methods and tools for natural hazard risk analysis in Eastern Canada: Using knowledge to understand vulnerability and implement mitigation measures //Natural Hazards Review. – 2017. – T. 18. – №. 1. – p. B4015002.; Hartmann G., Plenefisch T., Stammler K. Seismological central observatory (SZO) of BGR, Germany //Summ. Bull. Intl. Seismol. Cent. – 2018. – №. II. – p. 27-43.; Pradhan A. M. S., Lee S. R., Kim Y. T. A shallow slide prediction model combining rainfall threshold warnings and shallow slide susceptibility in Busan, Korea //Landslides. – 2019. – T. 16. – p. 647-659.; Riitta Molarius. Managing Technogenic Risks with Stakeholder Cooperation, August 2007.; David Ovadia. Geology as a contributor to national economies and their development, Published: 20 December 2017.; Mandal S., Mondal S. Statistical approaches for landslide susceptibility assessment and prediction (Статистические подходы к оползню оценка и прогнозирование восприимчивости). – Switzerland: Springer International Publishing, 2019. – 200 p.; Froude M.J., Petley D.N. Global fatal landslide occurrence 2004 to 2016 //Natural Hazards and Earth System Sciences. – 2018. – V. 18.–Iss. 8. –P. 2161–2181. URL: <https://doi.org/10.5194/nhess-18-2161-2018>.; Aleksandra E. Huff. Data-based Geologic Mapping for Exploration, A Dissertation Presented in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Philosophy, 2024.

Shuningdek, geologiya sohasida raqamli texnologiyalardan, xususan, geoaxborot texnologiyalardan foydalanish istiqbollari, ularning tutgan o'рни yuzasidan MDH olimlaridan N.A.Yakymchuk, A.A.Kuzin, E.N.Grishchenkova, M.G.Mustafin hamda ko'chki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarni zonalashtirish masalalarini o'rganish yuzasidan esa I.M.Bubniak, A.M.Bubniak, O.D.Gavrilenko, I.A.Potapov, A.D.Potapov, A.P.Karpik, V.S.Xoroshilov, A.V.Komissarov, S.E.Lapin, V.B.Pisetskiy, Ye.P.Istomin, L.S.Slesareva, M.P.Kropotkin, G.L.Fisenko, L.Massel, S.Timofeyeva, Emil Bayramov va boshqa bir qator olimlar ilmiy ishlar olib borgan<sup>4</sup>.

Iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni tutgan o'рни bo'yicha mahalliy iqtisodchi olimlar S.S.Gulyamov, A.T.Shermuxammedov, A.T.Kenjabaev, B.Yu.Xodiyev, I.Ye.Jukovskaya, Z.M.Otakuziyeva, N.F.G'ulomova, A.A.Ismoilov, shuningdek, geoaxborot texnologiyalari yordamida yer qari kartasini tuzishda ma'lumotlar bazasini yaratish, aerokosmik va uchuvchisiz uchish qurilmalaridan olingan ma'lumotlar orqali joylardagi o'zgarishlarni operativ aniqlash, monitoringini olib borish bo'yicha D.N.Raxmonov, L.X.Gulyamova, S.S.Ibroximov va boshqa bir qator yosh olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlar qisman o'z aksini topgan<sup>5</sup>.

---

<sup>4</sup>Yakymchuk N.A., Korchagin I.N. Integral estimation of the deep structure of some volcanoes and cymberlite pipes of the Earth //Geoinformatika. – 2019. – T. 1. – p. 28-38.; Kuzin A.A., Grishchenkova E.N., Mustafin M.G. Prediction of natural and technogenic negative processes based on the analysis of relief and geological structure //Procedia Engineering. – 2017. – T. 189. – p. 744-751.; Bubniak I. M., Bubniak A. M., Gavrilenko O. D. Digital field geology //Geoinformatics: Theoretical and Applied Aspects 2020. – European Association of Geoscientists & Engineers, 2020. – T. 2020. – №. 1. – p. 1-4.; Потапов А.Д., Потапов И.А. Инженерно-геологические или геологические процессы и явления, их развитие в современности //Безопасность строительных систем. Экологические проблемы в строительстве. Геозология; Вестник МГСУ 9/2012; – с.191-196.; Карпик А.П., Хорошилов В.С., Комиссаров А.В. Анализ методов и средств изучения динамики перемещений оползневых склонов //Геодезия и маркшейдерия; Вестник СГУГиТ, Том 26, № 6, 2021; – с.17-32.; Лапин С.Э., Писецкий В.Б. К разработке геоинформационной панели безопасности подземных горных работ на основе связанных решений по прогнозу развития напряженного состояния массива горных пород и газовых потоков //Чебышевский сборник, Том 18 Выпуск 3; 2017, том 18, выпуск 3, с. 352–365.; Истомин Е.П., Слесарева Л.С. Оценка риска экстремальных гидрометеорологических явлений //Уч. зап. РГГМУ, вып. 16, 2010.; Крпоткин М.П. Совершенствование оценок опасности и методов расчетов гравитационных склоновых процессов. Инженерные изыскания, Том XI, № 11, – с. 44-54.; Shemyakin E.I., Fisenko G.L. et al. Zonal disintegration of rocks around underground mines, part III: theoretical concepts //Sov. Min. Sci.(Engl. Transl.);(United States). – 1987. – T. 23. – №. 1.; Массель Л.В., Комендантова Н.П. Оценка рисков природных и техногенных угроз устойчивости энергетических, экологических и социальных систем на основе интеллектуальных информационных технологий // «Информационные и математические технологии в науке и управлении» 2019 № 4 (16).; Тимофеева С.С. Методы и технологии оценки аварийных рисков // практикум. – Иркутск : Изд-во ИрГТУ, 2015. – с. 155.; Emil Bayramov. Role of GIS and Remote Sensing in the Environmental Management of Petroleum/Gas Pipelines, 2018.

<sup>5</sup>S.S.Gulyamov, A.T.Shermuxammedov. Development of digital economy in the republic of Uzbekistan. VII Uzbek-Indonesian Joint international scientific and practical conference “Innovative development of entrepreneurship” with the framework of scientific and research project “Global economic challenges and national economy development” Tashkent-Jakarta, 2018, September.-180-183 p.; A.T.Kenjabaev, M.M.Ikramov. Перспективы развития ИКТ и электронное правительство в экономике Узбекистана //Экономика, статистика и информатика, 2015. №2. 221-223 б.; Ходиев Б.Ю. Узбекистан: построение цифровой экономики //Российский внешнеэкономический вестник. 2017. № 12. 3-12 б.; Жуковская И.Е. Совершенствование методологии использования информационно-коммуникационных технологий в статистической деятельности в условиях формирования цифровой экономики: Автореф. дис. докт. эконом. наук (DSc) по специальности 08.00.14 - Информационные системы и технологии в экономике. Ташкент. 2020. 53 б.; Z.M.Otakuziyeva. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlash yo'llari: 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya mutaxassisligi Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) Avtoreferati 2024.; N.F.G'ulomova. O'zbekiston hududlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish tizimini takomillashtirish: 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya mutaxassisligi Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Avtoreferati, 2021.; Ismoilov A.A., Ishnazarov A.I. Iqtisodiy tahlilning matematik usullari va bashoratlash. –T.: TDIU, 2007. -250 б.; Raxmonov

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy izlanishlari axborot-kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarini o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan, biroq xavfli geologik hodisalarni kuzatish hamda oldini olish maqsadida to'planadigan statistik ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonlariga raqamli texnologiyalar tatbiq etish va ular yordamida tahlil qilish usullarni ishlab chiqish, jahon tajribasi asosida sohaning salohiyatini to'liq ochib berish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, xavfli geologik jarayonlarni kuzatish sohasi yetarli darajada o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini belgilab beradi va tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq "Geologiya sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Davlat geologik monitoring xizmati misolida)" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** geologiya sohasining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

geologiya sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va tahlil qilish;

geologiya sohasini raqamlashtirishda xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;

geologiya sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali erishiladigan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va takomillashtirish;

geologik jarayonlarda foydalaniladigan tarqoq geoaxborot tizimlari va dasturiy ta'minotlarini birlashtirish bo'yicha uslubiyotni ishlab chiqish;

xavfli geologik jarayonlarni kuzatish sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash va joriy etish metodologiyasini ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida "O'zbekgidrogeologiya" davlat muassasasining Davlat geologik monitoring xizmati faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib davlat geologik monitoring xizmatining faoliyatini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida adabiyotlar tahlili, statistik tahlil, tizimli yondashuv, istiqbolli tahlil, bashoratlash kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

global joylashuv tizimi va raqamli texnologiyalarni geodezik o'lchovlarda qo'llash natijasida samaradorlik ko'rsatkichlari o'zgarishining operatsion xarajatlar

---

D.N. Aholini interaktiv dinamik kartalarini tuzishning nazariy va amaliy masalalari //O'zbekiston Milliy universiteti. – 2020.; Gulyamova L.X. Geoaxborot tizimlari va texnologiyalari //Toshkent: "Universitet". ISBN 978-9943-5279-1-1. – 2018.; Веб-картографирование и извлечение геопространственной информации из открытых данных в Узбекистане //Ташкентский государственный технический университет. – 2022.; Ibroximov S.S. Sug'oriladigan yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullarini takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) //“O'zdavyerloyiha” davlat-ilmiy loyihalash instituti. – 2022.

(-40...-60%), byudjet mablag‘lari tejalishi (+25...+30%), kunlik qamrov maydoni (+100%), monitoring chastotasi (2 baravargacha), zararning kamayishi (-20...-35%) chegara qiymatlari asoslangan;

xavfli geologik jarayonlarni kuzatib borish mexanizmining takomillashtirilishi natijasida 7 ta hududiy kuzatuv stantsiyalarida monitoring jarayonlarini onlayn rejimida tashkil etish orqali 2027-yilga qadar tejalishi mumkin bo‘lgan moliyaviy mablag‘lar hajmi asoslangan;

geologiya sohasidagi axborotlarni qayta ishlash, geoxavflarni monitoring qilish, kuzatish va boshqarishni ta‘minlash imkonini beruvchi raqamli platformaga mavjud axborot tizimlarini integratsiya qilish orqali ko‘chki xavfi aniqligi (90–95%), ogohlantirish vaqti (real vaqt), aholining tayyorgarligi (yuqori – 90%), qaror qabul qilish tezligi (oldindan rejalashtirilgan), zarar darajasi (50–70% kam) qiymatlarining ta‘minlanishi asoslangan;

O‘zbekistonda “Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish” axborot tizimiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali samarali foydalanishning 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi ma‘lumotlaridan olinganligi, shuningdek tegishli xulosa va takliflar mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan, geologiya soha faoliyati samaradorligini oshirishda, xavfli geologik jarayonlarni kuzatish mexanizmini takomillashtirishga doir maxsus tadqiqotlarni joriy qilishda hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ulardan jahon miqyosida raqamli texnologiyalarni samaradorligini baholash, oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot institutlari faoliyatida qo‘llaniladigan usul va vositalar samaradorligini oshirish, shuningdek, mamlakatimiz miqyosidagi raqamli texnologiyalarni joriy qilishda hamda iqtisodiy, marketing, axborot texnologiyalari, elektron tijorat fanlari doirasida o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan iqtisodiy ta‘lim yo‘nalishlari talabalariga “Raqamli iqtisodiyot”, “Iqtisodiyotda axborot tizimi va texnologiyalari”, “Raqamli geologiya” kabi fanlarni o‘qitishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xavfli geologik jarayonlarni kuzatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

global joylashuv tizimi va raqamli texnologiyalarni geodezik o‘lchovlarda qo‘llash natijasida samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘zgarishining operatsion xarajatlari (-40...-60%), byudjet mablag‘lari tejalishi (+25...+30%), kunlik qamrov maydoni (+100%), monitoring chastotasi (2 baravargacha), zararning kamayishi (-20...-35%)

chegara qiymatlari asoslangan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkichlar Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan “Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida islohotlarni chuqurlashtirish hamda tizim faoliyatini transformatsiya qilish strategiyasiga asoslangan yo‘l-xaritasi”ni ishlab chiqishda qo‘llanilgan. Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida geologiya sohasini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini yaratish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda monitoring va prognozlash sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini bergan (“O‘zbekgidrogeologiya” DMning 2025-yil 4-martdagi 02/05-son ma’lumotnomasi);

xavfli geologik jarayonlarni kuzatib borish mexanizmining takomillashtirilishi natijasida 7 ta hududiy kuzatuv stantsiyalarida monitoring jarayonlarini onlayn rejimida tashkil etish orqali 2027-yilga qadar tejalishi mumkin bo‘lgan moliyaviy mablag‘lar hajmi bo‘yicha taklifi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining “2023-2028-yillarga mo‘ljallangan raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ni ishlab chiqilishida inobatga olingan. Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida monitoring tizimining iqtisodiy samaradorligi oshib, xarajatlarni kamaytirish va mehnat resurslaridan foydalanishning optimal mexanizmini shakllantirish imkoni yaratilgan (“O‘zbekgidrogeologiya” DMning 2025-yil 4-martdagi 02/05-son ma’lumotnomasi);

geologiya sohasidagi axborotlarni qayta ishlash, geoxavflarni monitoring qilish, kuzatish va boshqarishni ta’minlash imkonini beruvchi raqamli platformaga mavjud axborot tizimlarini integratsiya qilish orqali ko‘chki xavfi aniqligi (90–95%), ogohlantirish vaqti (real vaqt), aholining tayyorgarligi (yuqori – 90%), qaror qabul qilish tezligi (oldindan rejalashtirilgan), zarar darajasi (50–70% kam) qiymatlarining ta’minlanishi bo‘yicha taklifi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining “2023-2028-yillarga mo‘ljallangan raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ni ishlab chiqilishida inobatga olingan. Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida onlayn kuzatuv natijalari yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish va favqulodda vaziyatlardan erta ogohlantirish uslubiyotini takomillashtirish orqali xavfli geologik jarayonlarni tahlil qilishga ketadigan vaqtni kamaytirishga hamda yillik sarf-xarajatlarni 25-30 foizgacha qisqarish imkoni yaratilgan (“O‘zbekgidrogeologiya” DMning 2023-yil 6-yanvardagi 01/02-son ma’lumotnomasi);

O‘zbekistonda “Xavfli geologik jarayonlarini kuzatish” axborot tizimiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali samarali foydalanishning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining “2023-2028-yillarga mo‘ljallangan raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ni ishlab chiqilishida inobatga olingan. Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida takroriy ma’lumotlarni qayta ishlashga sarflanadigan ortiqcha vaqt va mablag‘larni kamaytirish, inson resurslaridan oqilona foydalanish hamda monitoring jarayonlarida xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkoni yaratilgan (“O‘zbekgidrogeologiya” DMning 2025-yil 4-martdagi 02/05-son ma’lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta mahalliy, jami 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusiga taalluqli 9 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan 1 ta mahalliy jurnallarda va 3 ta xorijiy jurnallarda hamda 5 ta maqola tezislar respublikada tashkillashtirilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zururligi asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar talab darajasida keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Geologiya sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy-nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida raqamli texnologiyalardan foydalanishning geologik sohasini rivojlantirishdagi ahamiyati va roli yoritilgan, ularni qo‘llashning metodologik jihatlari o‘rganilgan, shuningdek, mazkur sohada mavjud muammolar va ularga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan.

So‘nggi yillarda geologiya sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish keskin ortmoqda. 2020-yilda dunyo bo‘yicha geologik kompaniyalarning atigi 25–30 foizi geoaxborot tizimlari, landshaft tahlili va geofazoviy ma’lumotlarni qayta ishlashda raqamli yechimlardan foydalangan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkichning 50–60 foiz atrofida bo‘lishi prognoz qilinmoqda<sup>6</sup>. Shuningdek, xalqaro tahlillarga ko‘ra, 2030-yilga borib geologik razvedkada sun’iy intellektdan foydalanish 35%ga oshishi prognoz qilinmoqda (1-rasm).

---

<sup>6</sup>Manba: <https://www.geospatialworld.net/>, <https://www.mckinsey.com/>.

Geologiya kompaniyalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish (%)



### **1-rasm. Geologiya kompaniyalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish (%)<sup>7</sup>**

Raqamli texnologiyalarni geologiya sohasida joriy etish jarayoniga bir qator muammolar to'sqinlik qilmoqda. Eng avvalo, rivojlanayotgan mintaqalarda texnologik infratuzilmaning, xususan internet tezligi, serverlar va bulutli texnologiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi jiddiy cheklovlar tug'dirmoqda. Mavjud uskunalar va dasturiy ta'minotlarning raqamli tizimlarga mos emasligi, shuningdek, katta hajmdagi, murakkab va turli formatdagi geologik ma'lumotlarni tahlil qilish va saqlashda yuqori samarali algoritmlarga ehtiyoj mavjudligi ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Shuningdek, soha mutaxassislarning raqamli texnologiyalar bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi, ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlashdagi xavotirlar, texnologiyalarni joriy etish uchun zarur moliyaviy resurslarning cheklanganligi ham raqamli transformatsiyani sekinlashtiruvchi omillar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, geologik ma'lumotlarning sifat va ishonchlilik darajasining pastligi, hamda iqlim o'zgarishlari fonida xavfli geologik jarayonlarning rivojlanishini prognoz qilishda yuzaga kelayotgan murakkabliklar mavjud bo'lib, ular uzoq muddatli kuzatuv va tahlillarni talab qiladi.

Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar qator kamchiliklar bilan kechmoqda. Jumladan, zamonaviy mexanik o'lchash asboblari bilan ta'minlanganlik darajasi past bo'lib, Yerni masofadan zondlash (xususan, kosmik tasvirlar) texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Kuzatuv jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi, ma'lumotni masofadan onlayn uzatish imkonini beruvchi avtonom qurilmalar mavjud emas.

Shuningdek, hududiy kuzatuv stansiyalarining malakali kadrlar bilan ta'minlanganligi yetarli darajada emas. Muhandislik-geologik tadqiqotlar ko'lami cheklangan bo'lib, ular ko'pincha faqat vizual kuzatish va laboratoriya ishlariga asoslangan. Natijada, berilayotgan ko'rsatmalar chuqur muhandislik-geologik

<sup>7</sup>World Economic Forum. Harnessing Artificial Intelligence for the Earth. – Geneva: WEF, 2018.

asosga ega emas, ularning amaliy samaradorligi va iqtisodiy jihatdan o'zini oqlash darajasi past bo'lmoqda.

Bundan tashqari, uchuvchisiz uchish apparatlaridan (UUA) foydalanish sust bo'lib, ularning natijalarini geologik-muhandislik tadqiqotlariga integratsiyalash bo'yicha metodologiya va tajriba yetishmaydi. Xususan: geologiya sohasida raqamli transformatsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi to'siqlarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar:

Texnologik infrastrukturadagi cheklovlar:

Ko'plab rivojlanayotgan mintaqalarda raqamli texnologiyalarni joriy qilish uchun yetarli infratuzilma mavjud emas. Internet tezligi, serverlar, ma'lumotlarni saqlash imkoniyatlari va bulutli texnologiyalarni ishlatishning yetarli darajada rivojlanmaganligi muammo tug'dirmoqda.

Mavjud uskunarlar va dasturiy ta'minotning moslashuvchanligi:

Geologik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va modellashtirish uchun ishlatiladigan an'anaviy uskunarlar ko'plab raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlamaydi. Bu, ayniqsa, eski tizimlar yoki ilg'or texnologiyalarni integratsiya qilishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va saqlashdagi murakkablik:

Geologik ma'lumotlar juda katta hajmdagi, murakkab va turli xil formatdagi bo'lishi mumkin. Ularni to'plash, saqlash va tahlil qilish uchun yuqori samarali algoritmlar, sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalariga ehtiyoj mavjud bo'lib, mazkur texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va sozlash jarayonlarining murakkabligi.

Kadrlarning malakasizligi:

Geologlar va boshqa mutaxassislarining ko'pchiligi yangi raqamli texnologiyalarni ishlatish uchun yetarli bilim va malakaga ega emasligi, raqamli texnologiyalarni qabul qilish va joriy qilish jarayonini sekinlashtiradi.

Xavfsizlik va maxfiylik masalalari:

Geologiya sohasida to'plangan ma'lumotlar ko'pincha strategik yoki maxfiy tusdagi bo'lib, raqamli texnologiyalarni joriy qilishda ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlar buzilishi yoki kiberhujumlar kabi xavflarni oldini olish choralarini ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy cheklovlar:

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish ko'pincha katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Ushbu texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar ko'plab tashkilotlar uchun yuqori xarajatli bo'lishi, qiyinchilik tug'diradi.

Geologik ma'lumotlar sifatining pastligi:

Ba'zan geologik ma'lumotlar yetarlicha to'g'ri yoki aniq bo'lmaydi, bu esa raqamli texnologiyalarni samarali ishlatish imkoniyatlarini cheklaydi. Ma'lumotlarning ishonchiligi va aniqligi raqamli tahlil va modellashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida geologiya sohasini innovatsion rivojlantirish bir qator ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi. Jumladan, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilidan foydalanish, geoaxborot texnologiyalar va masofaviy zondlash tizimlarini

keng joriy etish, zamonaviy geofizik hamda geokimyoviy metodlarni qo'llash, ekologik va ijtimoiy masalalarni hisobga olish, 3D modellashtirish va simulyatsiyani rivojlantirish, yuqori texnologik infratuzilmani yaratish hamda ilmiy tadqiqotlar va innovatsion materiallarni ishlab chiqish shular jumlasidandir. Mazkur yo'nalishlar geologiya sohasini modernizatsiya qilish, tabiiy resurslarni samarali boshqarish va barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar geologiya sohasida raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatdi. Eng avvalo, raqamli infratuzilmani rivojlantirish muhim bo'lib, bu barcha tarkibiy bo'linmalarni yuqori tezlikdagi optik aloqa tarmoqlari bilan ta'minlash, zamonaviy serverlar, ma'lumotlar saqlash qurilmalari, uzluksiz elektr ta'minoti va kommutatsiya vositalari bilan jihozlashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ma'muriy va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish asosida axborot tizimlari va sun'iy intellekt elementlarini joriy etish orqali sohaning raqamlashtirilishini ta'minlash lozim.

Bundan tashqari, axborot xavfsizligini ta'minlash, xususan, yangilangan xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, DLP tizimlarini joriy etish va texnik himoya vositalarini tatbiq etish orqali ma'lumotlarning tarqalishi va yo'qolishining oldini olish talab etiladi. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, shuningdek, rahbar va mutaxassislar raqamli texnologiyalar hamda axborot xavfsizligi bo'yicha malakasini tizimli ravishda oshirish sohada raqamli transformatsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan barcha jihatlar mamlakatdagi tabiiy resurslarni yanada samarali boshqarish va O'zbekiston barqaror rivojlanishining asosiy yo'nalishi bo'lgan geologik jarayonlar bilan bog'liq xavflarni kamaytirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Geologik jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning amaliy jihatlari”** nomli ikkinchi bobi O'zbekistonda geologik jarayonlarni samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy jihatlari bag'ishlangan.

Bugungi kunda respublikada geodezik o'lchovlarda zamonaviy GPS texnologiyalarining keng joriy etilishi aniq, tezkor va iqtisodiy samarali monitoring tizimini shakllantirmoqda. Sun'iy yo'ldoshlar orqali geodezik koordinatalarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rish chizig'isiz aniqlash imkoniyati mehnat va vaqt xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi hamda ma'lumotlarning ishonchliligini oshiradi. GPS qabul qiluvchilarning yuqori aniqligi an'anaviy usullarga nisbatan o'lchov aniqligini 10 barobar yaxshilab, reperlar sonini 2,7 barobar kamaytirish va kuzatuv sikllarini ikki barobar oshirish imkoniyatini yaratdi. GPS texnologiyalari bilan Geobank, Micromine va masofadan zondlash texnologiyalarining keng qo'llanishi foydali qazilmalar zaxiralarini hisoblash, modellashtirish va tahlil jarayonlarini optimallashtirib, ilmiy-texnik samaradorlikni oshirib, yuqori aniqlikdagi kosmik suratlar (ASTER, Landsat, QuickBird) asosida konlar raqamlashtirishga, shuningdek, ruxsatnoma hujjatlarning elektron shaklda berilishi orqali vaqt va ma'muriy xarajatlar sezilarli darajada qisqartirishga erishilgan (1-jadval).

**GPS va raqamli texnologiyalarni geodezik o‘lchovlarda qo‘llash natijasida samaradorlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi<sup>8</sup>**

Ko‘rsatkich	An’anaviy usullar	GPS va raqamli texnologiyalar joriy etilgach	O‘zgarish (%)
O‘lchov aniqligi	≈100 mm	10 mm gacha	-90 % (aniqlik oshgan)
Reperlar soni	100 %	37 %	-63 %
Kuzatuv sikllari	100 %	200 %	+100 %
Konlarning raqamlashtirilgan qismi	0 %	73 %	+73 %
Ruxsatnoma hujjatlari elektron shaklda	0 %	51 %	+51 %

Respublika geologiya sohasida Ko‘chki siljish dinamikasini kuzatishda 3D lazerli yer usti skanerlardan foydalanish ham geodezik monitoringning zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya relyefning uch o‘lchamli ko‘rinishini yuqori aniqlikda qayd etish, an’anaviy topografik usullarga nisbatan yanada ishonchli raqamli relyef modellarini yaratish va geodinamik jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini berib, masofadan turib ma’lumot yig‘ish imkoniyati xavfsizlikni oshirib, vaqt va mehnat resurslarini tejashiga, hajmi hisoblash algoritmlari esa siljishlarni yuqori aniqlikda aniqlashga yordam bermoqda. Shuningdek, Trimble S7 taximetri va Trimble Sure Scan texnologiyasini qo‘llash orqali esa dala va ofis ishlarini sezilarli tezlashtirib, relyef modellarini yuqori aniqlikda qayta ishlash imkoniyati yaratilgan. Respublikada geologiya sohasida mazkur texnologiya amaliyotda qo‘llash orqali uglevodorod resurslariga istiqbolli 17 ta maydon bo‘yicha yuqori aniqlikdagi 3D geologik modellar ishlab chiqilgan va Paradigm dasturiy ta’minoti asosida seysmik ma’lumotlar chuqur qayta ishlovdan o‘tkazilgan. Natijada, tahlil jarayonlarining aniqligi va ishonchliligi oshib, qidiruv ishlari va investitsion qarorlarni qabul qilish jarayonida vaqt va mablag‘ tejashiga erishilgan.

Shu bilan bir qatorda ko‘chkilarning uch o‘lchamli modellarini yaratishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan (UUA) foydalanish zamonaviy muhandislik-geologik tadqiqotlarning innovatsion yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, monitoring jarayonlarida yuqori aniqlik, tezkorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. UUA texnologiyasi ayniqsa borish qiyin yoki an’anaviy o‘lchovlar iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lgan hududlarda geodinamik jarayonlarni kuzatishning eng maqbul usuli hisoblanadi. Havo lazerli skanerlash relyef elementlarini yuqori aniqlikda qayd etib, morfologik tuzilmani tiklash va xavf darajasini aniqlash imkonini beradi.

<sup>8</sup>Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, UUA texnologiyasini joriy etish operatsion xarajatlarni kamaytirib, budjet mablag‘larini tejash imkonini beradi. (2-jadval).

**2-jadval**

**GPS va raqamli texnologiyalarni geodezik o‘lchovlarda qo‘llash natijasida samaradorlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi<sup>9</sup>**

Ko‘rsatkich	Joriy etilishidan oldin	Joriy etilgach	O‘zgarish (%)
Operatsion xarajatlar	100 %	40–60 % gacha kamaygan	–40...–60 %
Budjet mablag‘lari tejalishi	0 %	25–30 % tejash	+25...+30 %
Kunlik qamrov maydoni	15–20 km <sup>2</sup>	30–40 km <sup>2</sup>	+100 %
Monitoring chastotasi	1 marotaba	2 marotaba	2 baravar oshgan
Zarar kamayishi	0 %	20–35 % gacha kamaygan	–20...–35 %

Bundan tashqari, xavf darajasining pasaytirilishi investitsion jozibadorlikni oshirib, konchilik, infratuzilma va energetika sohalarida sarmoyaviy risklarni kamaytiradi hamda yangi raqamli xizmatlar bozori orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi. Umuman olganda, UUA texnologiyalarining keng joriy etilishi geologik xavflarni samarali boshqarish bilan bir qatorda iqtisodiy barqarorlik va investitsion faollikni oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda respublikada “raqamli iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish maqsadida Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan bir qator axborot tizimlari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etgan. Jumladan:

1. “Geologik ma’lumotlar milliy banki” – foydali qazilma uchastkalari bo‘yicha geologik ma’lumotlarni boshqarish, raqamli xaritalar tuzish va ma’lumotlar bankini yuritish imkonini beradi.

2. “Loyihalashtirish” (BIM-texnologiyalari asosida) – sanoat obyektlarini modellashtirish, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, hisob-kitoblar va infratuzilmani loyihalashtirish uchun mo‘ljallangan.

3. “Foydali qazilmalar davlat balansini yuritish” – 2200 dan ortiq noruda foydali qazilma zaxiralari bo‘yicha balans ma’lumotlarini shakllantirish va tahlil qilish imkoniyatini beradi.

4. “Elektron davlat xizmatlari va yer qa’ri foydalanuvchilarini hisoblash” – yer qa’ri foydalanuvchilarini ro‘yxatga olish tizimi.

5. “Yer minerallari va tog‘ jinslari milliy elektron bazasi” – 600 dan ortiq mineral va tog‘ jinsi bo‘yicha ma’lumotlarni jamlagan bazadir.

6. “Yer osti suvlarini monitoring qilish” – 101 ta yer osti suvlari konlari, 855 ta zaxira maydonlari, 48253 ta foydalanuvchilar, 3093 ta monitoring quduqlari va boshqa muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan tizim.

<sup>9</sup>Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu tizimlar sohada ma'lumotlarni samarali yig'ish, qayta ishlash va boshqarish imkonini yaratmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston tabiiy resurslarni samarali boshqarish, geologik xavflarni prognoz qilish va sohaga oid barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish zarurati bilan yuzma-yuz turibdi. Ushbu vazifalarni samarali hal etish geologiya sanoatining raqamlashtirilishini takomillashtirish va modernizatsiya qilish, shuningdek, barcha ma'lumotlarni yagona platformada jamlab, ularni tahlil qilish jarayonlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Mazkur yondashuvni bosqichma-bosqich amalga oshirish rejasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Raqamli platformani ishlab chiqish – geologik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash imkoniyatlarini ta'minlaydigan maxsus axborot tizimini yaratish;

Kadrlar tayyorlash – geologlar va boshqa mutaxassislarni yangi tizimlardan foydalanishga o'rgatish bo'yicha treninglarni tashkil etish;

Pilot loyihalar – raqamli statistik hisobotlar va ma'lumotlarning samaradorligini baholash maqsadida tajriba loyihalarini yo'lga qo'yish;

Tarqatish va masshtablash – muvaffaqiyatli natijalarga asoslanib, raqamli texnologiyalarni geologiyaning turli sohalarida keng joriy etish.

Shu nuqtayi nazardan, geologik jarayonlarda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash natijasida ishlab chiqilgan elektron statistik hisobot va ma'lumotlar konsepsiyasi nafaqat geologik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish imkonini beradi, balki boshqaruv jarayonlarini samaraliroq qilish va ularning shaffofligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, raqamli platformani joriy etish axborot oqimlarini markazlashtirish, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish, resurslardan oqilona foydalanish va xalqaro standartlarga moslashish imkonini berib, iqtisodiy samaradorlikni va geologik xavfsizlikni sezilarli darajada oshiradi. Mazkur tajriba O'zbekiston uchun uch asosiy muhim yo'nalishni taqdim etadi.

1. Ma'lumotlarning integratsiyasi va ochiqligi – ilg'or davlatlarda xavfli geologik jarayonlarga oid barcha ma'lumotlar yagona raqamli platformalarda jamlanadi.

2. Sun'iy intellekt va mashinali o'qitishdan foydalanish – xorijiy amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mashinali o'qitish algoritmlari katta hajmdagi ma'lumotlar asosida xavfli jarayonlarning yuz berish ehtimolini yuqori aniqlik bilan bashorat qila oladi.

3. Moliyaviy va institutsional mexanizmlar – rivojlangan mamlakatlarda bunday tizimlarni joriy etish davlat-xususiy sheriklik asosida yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda ham, geologik jarayonlarni raqamli monitoring qilish bo'yicha yirik investitsiya loyihalarini jalb etish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Platformalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ruxsatnomalar va litsenziyalarni elektron shaklda boshqarish;
- konlarga oid ekologik monitoring natijalari va tahlillar;
- minerallar zaxiralari, qazib olish statistikasi, eksport-import ma'lumotlari;
- geologik tadqiqotlar bo'yicha hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar.

Ma'lumotlar muntazam yangilanib, xodimlar, tadqiqotchilar va boshqaruv organlariga onlayn taqdim etiladi. Statistik hisobotlar avtomatlashtirilgan dasturlar

yordamida tayyorlanib, inson xatolarini kamaytiradi va ma'lumotlarning dolzarbligini oshiradi.


O'zbekiston uchun ushbu tajribalarning implikatsiyasi shundan iboratki, xavfli geologik jarayonlarni samarali boshqarish nafaqat ilmiy-texnikaviy muammo, balki ijtimoiy-iqtisodiy masala sifatida qaralishini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, xavfli geologik jarayonlarni kuzatishda raqamli platformalarni takomillashtirish — bu nafaqat monitoring va prognozlash samaradorligini oshirish, balki iqtisodiy samaradorlikka ham erishish, aholining xavfsizligini ta'minlash va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Xavfli geologik jarayonlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari”** nomli tadqiqot ishining uchinchi bobida zamonaviy raqamli texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish metodologik jihatlarini qamrab olgan bir qator muhim masalalar ko'rib chiqilgan.

Respublikada xavfli geologik jarayonlarni monitoring qilish, o'rganish va aholi punktlari va boshqa obyektlarni zararli ta'sirlardan himoya qilish bo'yicha tezkor qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish uchun ogohlantirish vazifasini **“O'zbekgidrogeologiya”** davlat muassasasi huzuridagi **“Davlat geologik monitoring xizmati”** (Davlat xizmati) bajaradi.

Tadqiqot natijasida, respublikasi hududida faollashgan xavfli geologik jarayonlarning (ko'chkilar, cho'kishlar, suffuziyalar, karstlar va boshqalar) rivojlanishini kuzatish va bashorat qilish imkonini beruvchi, shuningdek xavfli tabiiy jarayonlarni o'rganish, monitoring qilish, prognozlash bilan shug'ullanuvchi turli tashkilotlarning zamonaviy talab va ehtiyojlariga javob beradigan yagona monitoring tizimi yaratish taklif etilgan bo'lib mazkur taklif asosida **“GSS-monitoring”** axborot tizimi yaratilgan.




**2-rasm. “GSS-monitoring” axborot tizimining arxitekturası<sup>10</sup>**

<sup>10</sup>Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Axborot tizim arxitekturasi uch darajali tizimga mos bo‘lib, quyidagilarni ta’minlaydi: yagona markazlashgan ma’lumotlar bazasi va foydalanuvchi rollari boshqaruvi, axborot xavfsizligi va ko‘p bosqichli vakolat taqsimoti, me’yoriy hujjatlar va ma’lumotlar tekshiruvlarida hamkorlik, yuklamani dinamik taqsimlash va yagona autentifikatsiya mexanizmi, darajalarni nosozlik yoki texnik xizmat paytida izolyatsiya qilish, masshtablik va tizimni tez va oson qayta sozlash imkoniyati.

Axborotni qayta ishlash jarayoni boshqaruv kompyuteri tomonidan amalga oshiriladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘lchov birliklaridan avtomatik ma’lumot olish, vaqt parametrlarini sozlash, tizim holatini monitoring qilish, o‘lchov ma’lumotlarini tanqidiy chegaralarga muvofiq tahlil qilish, boshqaruv buyruqlarini shakllantirish, ma’lumotlarni arxivlash va ko‘rish hamda ma’lumotnomalarni taqdim etish.



**3-rasm. “GSS-monitoring” axborot tizimining ma’lumotlarni qabul qilish chizmasi<sup>11</sup>**

Axborot tizimidan foydalanadigan geologlar geologik parametrlar bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash va uzatish uchun zamonaviy qurilmalardan foydalanishlari ham mumkin. Foydalanuvchilarning umumiy soni taxminan 200 kishi bo‘lishi kutilmoqda va har bir foydalanuvchi o‘z funksiyalarini bir nechta rollarni birlashtirmasdan bajarishi kerak.

